

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



ADABIY TANQID NAZARIYASI

fanining o'quv dasturi

(1-kurs magistratura talabalari uchun)

| | |
|-----------------|---|
| Bilim sohasi: | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| Ta'lim sohasi: | 230 000 – Tillar |
| Mutaxassisligi: | 70230104 – Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyoti) |

Toshkent-2024

| | | | |
|--------------------------|--|------------------------|------------------------------|
| Fan/modul kodi ATN104 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 1 | ECTS – Kreditlar 4 |
| Fan/modul turi Tanlov | Ta'lif tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 |
| 1 Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lif (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Adabiy tanqid nazariyasi | 60 | 60 | 120 |
| 2 I. Fanning mazmuni | <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistratura talabalarni –“Adabiy tanqid nazariyasi” fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruba, seminar mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib borildi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lif sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruba matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma'ruba va amaliy mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning “bumerang”, “matbuot konferensiysi” singari ilg'or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.</p> <p>Fanning vazifasi – “Adabiy tanqid nazariyasi” taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o'ziga xos xususiyatlari, tanqid namoyondalari biografiyasи, badiiy tahlil tamoyillari, jahon adabiyotiga xos istilohiy ma'nolari va tarixiy taraqqiyotini o'rganish malakasi va bilimiga ega bo'lish.- tarixiy, adabiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojidagi rolini baholay olish.</p> | | |

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Adabiy tanqid nazariyasi fani sifatida

Fanning o'rganilish obyekti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi. Adabiy tanqidning mohiyati, uning lug'aviy ma'nosi. O'zbek tanqidchiligi tarixida ilmi naqd, ilmi bad'i singarilarning o'rni. Adabiy tanqidning vazifasi tanqid qilish emas, go'zallikni kashf etish ekanligi. Adabiy tanqidchilikning ijtimoiy, ilmiy, estetik asoslari. O'zbek adabiy tanqidchilik tarixini davrlashtirish prinsiplari. Adabiy-tarixiy jarayonda badiiy adabiyotning adabiy tanqid bilan uzviylikda rivojlanishi. .

2-mavzu. Adabiy tanqid genezisi.

Adabiy tanqid ilmda o'ziga xos hodisa sifatida dastlab Platon, Aristotel, Aristarx faoliyatlarida antik zamonda namoyon bo'lishi, tanqidning ilk unsurlari xalq og'zaki ijodida boshlanishi.. O'tmishda badiiy asar haqida ikki xil: og'zaki va yozma shakllarda fikr bildirish.

3-mavzu. O'zbek adabiy tanqidining shakllanishi

Adabiy tanqidning vujudga kelishi, uning istilohiy ma'nolari va tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tanqidchiligi tarixida ilmi naqd, ilmi bade' sinagarilarning o'mi. Mumtoz o'zbek tanqidchiligining sharh, talqin, tafsir, tazkira, hasbi hol sinagri janrlari haqida ma'lumot. Adabiy tanqid kashf etish san'ati.

4-mavzu. Adabiy tanqidda vulgar sotsiologizm

Tanqidchilikdagi o'zgarishlar: zamonasozlik ohanglari. Sotti Husayn, Olim Sharafiddinov, A. Sa'diy kabilar ijodi. O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz merosga munosabat. Badiiy asarlarga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashuv. Oybek, I.Sulton, H.Yoqubovning adabiy-tanqidiy qarashlari.

5-mavzu. O'zbek adabiy tanqidchiligidagi metodlar

O'zbek adabiy tanqidchiligidagi biografik metod: hasbi hoi, manoqib, tanqidiy ocherk, adabiy portret, XX asr o'zbek tanqidchiligidagi badia, xotira singari janrlarning takomili.

6-mavzu. O'zbek adabiy tanqidchiligidagi metodlar (davomi)

Adabiy tanqidda metodlaming o'rni, vazifasi. Struktural, formal metodlarga xos xususiyatlar. Adabiy tanqidda muallif va davr munosabati. Badiiy matn poetikasidagi o'zgarishlar.

7-mavzu. Adabiy tanqidda tahlil imkoniyatlari

Adabiy matnni o'qish, o'zlashf.iiish muammosi. Talqiniy yondashuvlar yoxud maqsadli tahlil.Talqiniy jarayon: tahlil yo'llari, maqsad va vazifalari

8-mavzu. Adabiy tanqidda tahlil va talqin muammolari

Talqiniy jarayon: tahlil yo'llari, maqsad va vazifalari. Tahliy-adabiy tanqidiy faoliyatning asosi, t.alqinning namoyon bo'lishi, qadriyat bahosining zuhurlanishi. Tahlil-matn mohiyatiga kirib borish, ma'no qallamlarini qunt, ziyraklik bilan o'rganish, so'zlar, hatto ohanglarga yuklangan vazifa-ma'nolarni qalbning nafosa,tarozusida o 'lchash.

9-mavzu. Adabiy tanqid va badiiy tanqid

Adabiy tanqid va badiiy tanqid shu yo'nalishga asoslangan ilmiy-biografik tadqiqotning keng tarqalgan janridir. Unda ijodkoming yaxlit qiyofasini yaratishga ahamiyat beriladi.

10-mavzu. Adabiv tanqid janrlari.

Adabiy tanqidning janriy tasnifi. Tanqidning maqola, portret, ocherk singari janrlarida ko'plab asarlar yaratilganligi. XXI asr o'zbek tanqidchiligidagi badiya, xotira singari janrlarning avj olayotganligi. Taqriz. Uning mohiyati. Taqriz shakllari. Taqriz o'y, taqriz bahs, taqriz-dialog singarilar. Taqriz tarixiga bir nazar. Adabiy muloqotga asoslangan janrlar. Adabiy suhbat janriga xos xususiyatlar

11-mavzu. Abdurauf Fitrat, Cho'lpion, Vadud Mahmudning adabiy-tanqidiy qaraqarashlari

Abdurauf Fitrat, Cho'lpion, Vadud Mahmudning adabiy-tanqidiy qaraqarashlarini o'rganish, tanqidiy asarlari va maqolallari bilan tanishib, tahlil qilish.

12-mavzu. Ozod Sharafiddinov, M. Qo'shjonovlarning adabiy-tanqidiy qarashlari

Ozod Sharafiddinov, M. Qo'shjonovlarning adabiy-tanqidiy qarashlarini ilmiy asosi, ilmiy asarlari, tanqidiy maqollari tahlili

13-mavzu. Umarali Normatov, Baxtiyor Nazarov, Abdug'afur Rasulov va Ibrahim Haqqulovlarning adabiy-tanqidiy qarshlari.

Umarali Normatov, Baxtiyor Nazarov, Abdug‘afur Rasulov va Ibrahim Haqqulovlarning tanqidiy qarshlarini o‘rganish. O‘zbek tanqidchiligidagi I.Sulton, M.Qo‘shtonov, B.Nazarov, M.Mamajonov, N.Karimov portretlari. O.Sharafiddinovning A.Qahhor, S.Ahmad, O.Yoqubov, A.Muxtor, P.Qodirovga bag‘ishlangan portret maqlolalari.

14-mavzu. Istiqlol davri tanqidchiligi

Mustaqillik davri adabiyoti va adabiy tanqid. Inson va jamiyat. Makon va zamon, shakl va mazmun tushunchasini ilmiy-estetik tahlil va talqin etish, badiiy asarni yangi tamoyillar asosida talqin etish. Mustaqillik davri tanqidchiligi namoyandalari. Istiqlol davri tanqidchiligidagi yosh munaqqidlarning ishtiroki. Istiqlol davri tanqidchiligidagi mahorat muammosi. Adabiy tanqidchilikda tur va janrlar talqini. Talqin, tahlildagi yangicha nazariyalarning maydonga kelganligi.

15-mavzu. Munaqqid uslubi va mahorat masalasi

Munaqqid uslubining shakllanishi. Badiiy asarga yondashuv jarayoni. Munaqqid mahorati masalasi. Uslub-ijodkor o‘zligi. Tanqidchilikda uslubiy rang-baranglik. Tanqidchilikda badiiylik masalasiga e’tiborning ortishi.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Adabiy tanqid ijtimoiy-estetik mohiyati

O‘zbek adabiy tanqidchiligining shakllanish tamoyillari

Vadud Mahmud va Cho‘ponning adabiy-estetik qarashlari

San’at asarlarini baholash

Adabiy tanqidda taqrizning o‘rni

Adabiy tanqid va adabiy jarayon

Adabiy tanqid va adabiy jarayon (davomi)

Umarali Normatovning adabiy tanqidiy qarashlari

Naim Karimov adabiyotshunos olim

Ibrohim G‘afurovning adabiy-tanqidiy qarashlari

Adabiy suhbat janri va uning bugungi taraqqiyoti

Adabiy portret janri

Adabiy-tanqidiy maqola

Tarixiy-biografik yondashuvga asoslangan adabiy
tanqid janrlari

Adabiy tanqidda tahlil va talqin muammolari.

Izoh: Amaliy mashg'ulotlari talabalarni qiyosiy adabiyotshunoslik ilmiga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qilaadi. Amaliy mashg'ulotlarida talabalar mumtoz tarixiy poetikaning ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

"Adabiy tanqid nazariyasi" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lif tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlami o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalaniib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzulami chuqrur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilanligan o'quv mashg'ulotlari;

- mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlami bajarish tavsiya etiladi;
- amaliy va seminar mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

O.Sharafiddinov hayoti v “Dovondagi o‘ylar” asarini o‘qib o‘rganish

XX asrning 20-30 yillari tanqidchiligi

Oybek, I.Sulton, H.Yoqubov adabiy-tanqidiy ijodi

O.Sharafiddinov “Jahon adiblari adabiyot haqida”.

M.Qo’shjonov “Tanlangan asarlar”.

S.Mamajonov, I. G‘afurov adabiy-tanqidiy ijodi

N. Karimov va U. Normatov adabiy-tanqidiy ijodi

A.Rasulov “Taqid, tahlil, baholash”

“Ozod vatan saodati” kitobi tahlili

Izoh: Dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta’lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish, talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari hamda mavzularni chuqur o‘rganish tavsiya etiladi.

VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- badiiy asarni tanqidiy mohiyatini chuqurroq anglash uchun mumtoz janrlarni tadqiq etish ko‘nikmasini hosil qilish;
- mavjud matnlarni tanqidiy nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etishi, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘zbek tanqidiy adabiyotning tarixiy ildizlari va namunalarini tanqidiy masalalari bilan aloqadorlikda o‘rganishga kirishish;

| | |
|----|---|
| | <ul style="list-style-type: none"> - o'zbek adabiyotini tanqidiy namunalarini Sharq va jahon adabiyoti kontekstida qarash; - egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish malakasini egallashi lozim. <p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <p>ma'ruzalar;</p> <p>seminarlar (mantiqiy fikrash, tezkor savol-javoblar);</p> <p>taqdimotlarni qilish;</p> <p>individual loyihalar;</p> <p>jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p> |
| 4. | <p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> |
| 5. | <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <p>O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. (X-XIX asrlar). –T.: O'zbekiston, 1993. 2. Nazarov va b.O'zbek adabiy tanqidi tarixi– T.: O'qituvchi, 2012. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoev Sh. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda o etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. 2. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijnob xalqimiz bilan birga miz. – T.: O'zbekiston, 2017. 3. Alimbekov A. Yulduzning besh qirrasi. – T.: Muharrir, 2012. 4. A'zam E. Shovqin. T.: O'zbekiston, 2011. 5. Do'stmuhammad X. Ijod – ko'ngil munavvarligi. – T.: Mumtoz so'z, 2010. 6. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006. 7. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlodii, 2007. 8. Karimov B. Qodiriy sog'iichi. – T.: Fan, 2004. 9. Normatov U. Ko'ngillarga ko'chgan she'riyat. – T.: 2006. |

10. Normatov U. Ijodkoming dahlsiz dunyosi. – T.: 2009.
11. Rasulov A. Betakror o'zlik. – T.: Mumtoz so'zi, 2009.
12. Rasulov A. Uslub – iste'dod portreti. – T.: 2013.
13. Rasulova U. XX asr qissachiligi (poetik izlanishlar va taraqqiyot oyillari). - T.: 2020.
14. Sanjar Sodiq. Ijodning o'ttiz lahzasi. – T.: Sharq, 2005.
15. Sulton I. Ozod. T.: Sharq, 2012.
16. Ulug'ov A. Qalb qandili. Akademnashr, 2013.
17. Xoldorov D. Ijod mohiyati – uslub xosiyati. – T.: Turon zamin ziyo, 2017.
18. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
19. O'zbek modern she'riyati. T.: Yangi asr avlod, 2003.
20. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. – T.: 2013.
21. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. – T.: Meros, 1994.
22. G'afurov I. Hayo – xaloskor. – T.: 2006.
23. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – T.: 2002.
24. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – T.: Yangi asr avlod, 2002.

Axborot manbalari:

1. www.literature.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.natlib.uz

| | |
|----|--|
| 7. | <p>O'quv dastur Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Kengashning 2024-yil “<u>36</u>” <u>o'guz</u> dagi <u>1</u>-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan, Termiz davlat universiteti Kengashning 2024-yil “<u>30</u>” <u>o'guz</u> dagi <u>1</u>-sonli qarori bilan ma'qullangan.</p> |
| 8. | <p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Arslonov A. – Termiz davlat universiteti, “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Shofiyev O. - Termiz davlat universiteti, “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.</p> |
| 9. | <p>Taqrizchilar:</p> <p>N. T. Yuldashev – Termiz davlat unversiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti. S. Z. Raimova – Termiz davlat unversiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti.</p> |